

MENTORLIKNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI: TARIXIY- ANALITIK YONDASHUV

Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti
jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi.

Tel.(93) 449-14-24

Email: rahimovxasanboy25@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20563328>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mentorlikning ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotda mentorlikning kelib chiqishi, qadimgi ustoz–shogird an'analari hamda turli davrlardagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqilib, mentorlikning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni aniqlanadi. Natijalar mentorlikning individual tajriba uzatishdan tizimli pedagogik jarayonga aylanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mentorlik, ijtimoiy-pedagogik fenomen, tarixiy rivojlanish, tarixiy-tahliliy yondashuv, ustoz-shogird an'anasi, ta'lim tizimi, qiyosiy tahlil

Аннотация: В данной статье на основе историко-аналитического подхода исследуются процессы становления и развития менторства как социально-педагогического феномена. В исследовании анализируются происхождение менторства, древние традиции отношений «учитель–ученик», а также этапы его развития в различные исторические периоды. Кроме того, в сравнительном аспекте рассматриваются взгляды мыслителей Востока и Запада, определяется место менторства в современной системе образования. Результаты исследования показывают,

что менторство трансформировалось от передачи индивидуального опыта к системному педагогическому процессу.

Ключевые слова: менторство, социально-педагогический феномен, историческое развитие, историко-аналитический подход, традиция «учитель–ученик», система образования, сравнительный анализ

Abstract: This article examines the formation and historical development of mentoring as a socio-pedagogical phenomenon based on a historical-analytical approach. The study analyzes the origins of mentoring, ancient teacher–student traditions, and the stages of its development across different historical periods. In addition, the views of Eastern and Western thinkers are comparatively analyzed, and the role of mentoring in the modern education system is identified. The findings show that mentoring has evolved from the transfer of individual experience into a systematic pedagogical process.

Keywords: mentoring, socio-pedagogical phenomenon, historical development, historical-analytical approach, teacher–student tradition, education system, comparative analysis

Ustoz - shogird munosabatlari turli tarixiy davrlarda ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy shakllaridan biri sifatida namoyon bo'lgan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu munosabatlar ko'pincha mentorlik tushunchasi bilan bog'lab izohlanadi, biroq uning tarixiy ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Eng qadimgi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bilim uzatish jarayoni insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridanoq mavjud bo'lgan. Xususan, Qur'on matnida bilim berish jarayoni ilk inson - Odam (a.s.) misolida aks ettiriladi. Unda quyidagicha bayon etiladi: “Va u Odamga ismlarning barchasini o'rgatdi, so'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qildi. Keyin “Agar rostgo'ylardan bo'lsangiz, anavilarning ismlarini menga aytib bering”, [11;34 b.] - dedi. Ushbu holatni zamonaviy mentorlik bilan to'liq tenglashtirish murakkab bo'lsa-da, uni bilim beruvchi va oluvchi o'rtasidagi dastlabki ijtimoiy-pedagogik munosabat hamda ustoz-shogird tizimining ibtidoiy modeli sifatida talqin qilish mumkin.

Shuningdek, Qadimgi Yunon falsafiy maktablarida bilim berish jarayoni tizimli tus ola boshladi. Ayniqsa, Suqrot tomonidan qo'llanilgan savol-javob (Socratic method) usuli o'quvchini mustaqil fikrlashga undovchi muhim pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Bu usul haqida Plato o'zining "*Theaetetus*" asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Men doyaga o'xshayman - boshqalarning g'oyalari tug'ilishiga ko'maklashaman"[3;24-25 b] (Plato, *Theaetetus*). Ushbu yondashuvda ustoz tayyor bilim beruvchi emas, balki o'quvchining ichki salohiyatini ochib beruvchi va mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur qarash konstruktivistik pedagogika tamoyillariga mos bo'lib, bilimning o'quvchi tomonidan faol o'zlashtirilishini asoslaydi

Mentorlik (ustoz shogird) atamasining ildizi esa Odyssey asariga borib taqaladi. Homer tomonidan yaratilgan Mentor obrazi dono maslahatchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatida tasvirlanib, yosh avlodni hayotiy tajriba orqali tarbiyalovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu obraz mentorlik atamasining shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki konseptual manbalardan biri sifatida talqin etiladi.[5;48 b]

Ustoz shogird tushunchalari Abu Nasr Farobiy qarashlarida xam aks ettirilgan bo'lib unda: "Inson baxt-saodatga faqat ilm va fazilat orqali erishadi" [2;56-58 b] degan g'oya ilgari suriladi. Bu yerda ta'lim faqat bilim berish emas, balki axloqiy kamolot bilan bog'lanadi.

Keyingi bosqichda Abu Ali Ibn Sino ta'lim mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: "Ta'lim insonning aqliy va axloqiy quvvatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim" [10;5-20 b.]. Ushbu yondashuv ta'limni kompleks rivojlanish jarayoni sifatida ko'rsatadi.

Ustoz - shogird munosabatlarida tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi masalasi Sharq mutafakkirlari tomonidan alohida e'tibor bilan yoritilgan. Xususan, Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy ta'limotida ustoz - shogird munosabatlari muhim pedagogik jarayon sifatida talqin etilib, unda axloqiy tarbiya va shaxsiy namuna ustuvor omil sifatida qaraladi. U o'zining *Ihya Ulum al-Din* asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Bilimga ega bo'lib, ammo unga muvofiq amal

qilmaydigan kishi boshqalarga foyda keltiradigan, ammo o'zida ilm bo'lmagan daftarga o'xshaydi.”[1;257-258 b.] deb takidlaydi. Ushbu fikr ustoz faoliyatida nazariy bilim bilan amaliy harakat o'rtasidagi uyg'unlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ustoz–shogird munosabatlari esa ota–farzand munosabatiga qiyoslanib: “Albatta, men sizlar uchun farzandlariga nisbatan ota kabiman.”[1;257-259 b.] deb tariflanadi. Bu yerda ustozning shogirdga bo'lgan munosabati faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki tarbiya, g'amxo'rlik va ma'naviy yo'l-yo'riq ko'rsatish kabi jihatlarni ham qamrab olishi lozimligi anglashiladi.

Ustozning shaxsiy namunasi masalasi alohida o'rin tutadi. Agar ustozning o'z amali so'zlayotgan gapiga muvofiq bo'lmasa: “... amal bilimga zid kelsa, insonning o'zini ham, boshqalarni ham tarbiya qilish jarayoni izdan chiqadi.”[1;259 b.] deb takidlaydi. Bu yondashuv tarbiya jarayonida shaxsiy namuna va amaliy faoliyatning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy tadqiqotchilardan Tetiana Shvets va hammualliflar mentorlikning o'qituvchilar kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini tahlil qilib, “Mentor ta'lim oluvchi bilan faol hamkorlik qilish orqali uning ichki imkoniyatlari va salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi.” [8;7-8 b.]. Bu yondashuv zamonaviy mentorlikning faqat bilim uzatish emas, balki shaxsning ichki salohiyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlashini shakllantirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Shu bois ustoz–shogird munosabatlarida individual qo'llab-quvvatlash, psixologik hamkorlik, o'zaro ishonch va samimiylilik muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar ta'lim oluvchining motivatsiyasi hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim metodologik asosi hisoblanadi.

Salsabila Sh. va hammualliflar elektron mentorlikning (e-mentoring) professional rivojlanishdagi o'rnini bibliometrik tahlil asosida o'rgangan. Tadqiqotda 2005–2024 yillarda Scopus bazasida chop etilgan 335 ta ilmiy manba tahlil qilinib, mentorlik sohasidagi asosiy tendensiyalar va dolzarb mavzular aniqlangan. Mualliflar elektron mentorlikning ta'lim va kasbiy rivojlanishdagi

ahamiyati, onlayn qo'llab-quvvatlash hamda raqamli texnologiyalar ta'sirida mentorlikning yangi shakllari rivojlanayotganini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, elektron mentorlik raqamli muhitda ta'lim va kasbiy rivojlanishni samarali qo'llab-quvvatlovchi muhim vosita hisoblanadi. [7;11-12 b]. Bu kabi zamonaviy yondashuv vaqt tejamkorligi, masofaviy muloqot imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonining moslashuvchanligini ta'minlashi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Biroq masalaning ijtimoiy-pedagogik jihatlari tahlil qilinganda, an'anaviy yuzma-yuz muloqot shakli ham o'z ahamiyatini saqlab qolishi kuzatiladi. Chunki ustoz va shogird o'rtasidagi bevosita muloqot jarayonida nafaqat bilim almashinuvi, balki axloqiy tarbiya, shaxsiy namuna, emotsional qo'llab-quvvatlash va ma'naviy ta'sir kabi omillar ham shakllanadi. Pedagogik nuqtai nazardan, aynan shu ma'naviy-psixologik yaqinlik tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bois elektron mentorlikning mavjudligi an'anaviy mentorlik samaradorligini inkor etmaydi. Aksincha, zamonaviy ta'limda ushbu ikki yondashuvning o'zaro integratsiyasi - raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini jonli pedagogik muloqot bilan uyg'unlashtirish - ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Bagai R. va xammualiflar tomonidan xam mentorlikni zamonaviy yondovi tadqiqot doirasida o'rganilgan va: "Sun'iy intellekt asosidagi mentorlik real vaqt rejimida individual yo'l-yo'riq va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga intiladi." [4;6-7 b.] deb takidlashgan va ular tomonidan olib borilgan tadqiqotda sun'iy intellekt asosida ishlovchi "MentorAI" raqamli mentorlik platformasining konseptual modeli tahlil qilingan. Mualliflar ushbu platformani kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion tizim sifatida baholaydilar. Tadqiqotda MentorAI platformasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, kasbiy maqsadlari va kompetensiyalarini tahlil qilish orqali ularga mos tavsiyalar, o'quv resurslari hamda real vaqtda maslahatlar taqdim etishdan iborat ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, tizim sun'iy intellekt (AI), mashinali o'qitish

(Machine Learning) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari asosida ishlashi qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilm egallash va ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayoni qadimdan ustoz–shogird munosabatlari asosida shakllangan muhim pedagogik tizim hisoblangan. Sharq olimlarining ilmiy ishlari esa ustozning ilmiy rahnamoligi va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Xususan, Mirzo Ulug'bekning Samarqand ilmiy maktabi Sharqdagi mentorlikning yorqin namunasi bo'lib, unda yosh olimlar mustaqil fikrlash va ilmiy izlanishga yo'naltirilgan [9;224 b.].

Mirzo Ulug'bekning Zij-i Jadid-i Guragoni asari o'z davrining eng aniq astronomik manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Olim o'z ilmiy faoliyatida shogirdlarning mustaqil tadqiqot olib borishiga katta e'tibor qaratgan. Uning eng mashhur shogirdlaridan biri Ali Qushji bo'lib, u ustozining ilmiy ishlarini davom ettirgan va astronomiya hamda matematika sohalarida muhim asarlar yaratgan. [9;256].

Shu nuqtai nazardan, ustoz–shogird an'alarini saqlash va rivojlantirish jamiyatda ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash, intellektual salohiyatni oshirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim metodologik asoslaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al-Ghazali. *Ihya Ulum al-Din*. -B. 257–259.
2. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri (Al-Madina al-Fadila)* / tarj. M. Mahmudov. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. — B. 56–58.
3. Aristotle. (2011). *Nicomachean Ethics* (R. C. Bartlett & S. D. Collins, Trans.). Chicago: University of Chicago Press.
4. Bagai, R., & Mane, V. (2023). Development of an AI-Based Mentorship Platform for Professional Growth: Opportunities and Challenges //

International Journal of Computer Trends and Technology. -Vol. 71(4). -P. 108–114. DOI: 10.14445/22312803/IJCTT-V71I4P114.

5. Homer. (1996). *Odyssey* (R. Fagles, Trans.). New York: Penguin Books.
6. Qur'oni karim. Saf surasi, 61:2-oyat // *Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri* / tarjimon Abdulaziz Mansur. -Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2018. -Б. 551.
7. Salsabila, S., Kustandi, C., & Nurjannah. (2024). A Bibliometric Review of E-Mentoring for Professional Development: A Scopus Database Study // *Journal of Science and Education*. -Vol. 5, No. 1. -P. 225–233. DOI: 10.58905/jse.v5i1.420.
8. Shvets, T., Kuzmenko, D., Motuz, T., Moiseienko, I., & Pasichnyk, L. (2024). The Role of Mentoring in the Professional Development of Teachers // *Multidisciplinary Science Journal*. -Vol. 6. DOI: 10.31893/multiscience.2024ss0201.
9. Ахмедов Б. А. *Мирзо Улугбек*. -Тошкент: Фан, 1994. -224 б.
10. Ибн Сино Абу Али Хусайн ибн Абдуллоҳ. *Китоб аш-шифо: Ан-нафс*. -Қоҳира: Дор ал-Кутуб ал-Мисрийя, 1952. -Б. 5–20.
11. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. *Тафсири Ҳилол*. Биринчи жуз. -Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2005. -Бақара сураси, 31-оят. -Б. 34.